

O'QUVCHI SHAXSINI IJTIMOYIY RIVOJLANISHI VA HIMOYASIDA IJTIMOIY ISH MUTAXASSISINING KASBIY KOMPETENSIYALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19275486>

Tolibov Bekzod Xakimovich

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy ish kafedrası mudiri

Sotsiologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori PhD.

Xoshimova Mohinurxon Baxtiyor Qizi

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy ish kafedrası 1-kurs magistranti.

Annotatsiya

Mazkur maqola, o'quvchi shaxsining rivojlanishi va ijtimoiy himoyasini ta'minlashda ijtimoiy ish mutaxassisining kasbiy kompetensiyalarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashga bag'ishlangan. Maqolada o'quvchi shaxsining ijtimoiylashuv jarayoni, uning psixologik barqarorligi hamda huquqiy himoyasi masalalari kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi. Ijtimoiy ish mutaxassisining kasbiy faoliyati huquqiy, ijtimoiy-pedagogik, diagnostik, kommunikativ va etik kompetensiyalar tizimi doirasida ko'rib chiqildi. Shuningdek, ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ijtimoiy xavfsizligini ta'minlash, xavf guruhidagi bolalarni qo'llab-quvvatlash hamda oila-makta-jamiyat hamkorligini mustahkamlashda mutaxassisning institutsional roli yoritildi. Maqolada ilgari surilgan nazariy xulosalar ta'lim tizimida ijtimoiy ish faoliyatini takomillashtirish va o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan professional yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlari

O'quvchi shaxsi, shaxs rivojlanishi, ijtimoiy himoya, ijtimoiy ish mutaxassisi, kasbiy kompetensiya, ijtimoiy-pedagogik faoliyat, huquqiy himoya, diagnostik yondashuv, kommunikativ kompetensiya, ta'lim muassasalari.

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchi shaxsi jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Globallashuv jarayonlari, axborot oqimining keskin ortishi, ijtimoiy-iqtisodiy omillarning murakkablashuvi hamda oilaviy muhitdagi o'zgarishlar o'quvchilarning ijtimoiylashuv jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda o'quvchi shaxsining barqaror rivojlanishi, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish, psixologik hamda ijtimoiy xavfsizligini ta'minlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ta'lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchining ijtimoiy moslashuvini ta'minlovchi ijtimoiy

institut sifatida ham faoliyat yuritadi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy ish mutaxassisi ta'lim tizimining muhim subyekti hisoblanadi. Uning kasbiy faoliyati o'quvchining shaxs sifatida shakllanishi, xavf omillarini kamaytirish hamda himoya mexanizmlarini amalga oshirish bilan chambarchas bog'liqdir. O'quvchi shaxsining rivojlanishi ko'p omilli jarayon bo'lib, u biologik, psixologik, ijtimoiy va madaniy determinantlar ta'sirida shakllanadi. Mazkur jarayonda, ijtimoiy ish mutaxassisining kasbiy kompetensiyalari alohida ahamiyatga ega. Chunki, aynan kasbiy bilim, amaliy ko'nikma va etik me'yorlarga tayangan holda mutaxassis o'quvchining individual ehtiyojlarini aniqlaydi, mos ijtimoiy-pedagogik choralarni belgilaydi hamda muammoli vaziyatlarda himoya funksiyasini bajaradi.

Shuningdek, ta'lim muhitida uchraydigan ijtimoiy xavf omillari ya'ni oilaviy nizolar, ijtimoiy tengsizlik, zo'ravonlik, psixologik bosim, nogironlik yoki moslashuv muammolari, o'quvchi shaxsining to'laqonli rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin²¹. Bunday hollarda ijtimoiy ish mutaxassisining huquqiy, diagnostik (bahlash), kommunikativ va ijtimoiy-pedagogik kompetensiyalari tizimli yondashuvni ta'minlaydi. Shu bois o'quvchi shaxsining rivojlanishi va himoyasida ijtimoiy ish mutaxassisining kasbiy kompetensiyalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish ularning mazmuni va amaliy ahamiatini ochib berish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Asosiy qisim

Bugungi kunda va zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchi faqat bilim oluvchi subyekt emas, balki ijtimoiy, psixologik va huquqiy himoyaga muhtoj shaxs sifatida qaraladi. Ijtimoiy tengsizlik, oilaviy muammolar, zo'ravonlik, migratsiya, nogironlik yoki psixologik bosim kabi omillar o'quvchi shaxsining to'laqonli rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin²². Shu sababli ta'lim muassasalarida ijtimoiy ish mutaxassislarining roli muhim ahamiyat kasb etadi. Mavzu mohiyatidan kelib chiqib asosiy tushunchalarga e'tibor bersak.

Shaxs rivojlanishi- bu o'quvchining intellektual, axloqiy, ijtimoiy va emotsiyonal jihatdan shakllanish jarayoni. Shuningdek, shaxs rivojlanishi bu individning biologik yetilishi, psixik jarayonlar, ijtimoiy tajribani shakllanishi natijasida yuzaga keladigan murakkab, ko'p bosqichli va ko'p omilli jarayondir. Mazkur jarayon, irsiy omillar, ijtimoiy muhit, tarbiya va faoliyatning o'zaro ta'siri natijasida rivojlanadi. Ilmiy yondashuvlarga ko'ra, shaxs rivojlanishi deterministik(belgilamoq, aniqlamoq ma'nosida) xarakterga ega bo'lib, u biologik va ijtimoiy determinantlarning o'zaro integratsiyasi natijasida yuzaga keladi²³. Biologik omillar organizmning fiziologik yetilishi va psixofiziologik xususiyatlarni

²¹ Bolalar va o'smirlar psixologik rivojlanishi. A.V. Petrovsky. 2019-yil.

²² Bolaning ruhiy va ijtimoiy tarbiyalash. Maqolalar to'plami. 2020-yil.

²³ O'smir tarbiyasi:amaliy qo'llanma. A.S.Makarenko. 2020-yil.

belgilasa, ijtimoiy omillar individning ijtimoiylashuv jarayoni, ijtimoiy rollarni egallashi va me'yorlarni o'zlashtirishi orqali shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Shaxs rivojlanishining psixologik komponenti kognitiv (bilish jarayonlari), affektiv (emotsional holat) va volitiv (irodaviy sifatlar) sohalarining uyg'un rivojlanishini nazarda tutadi. Kognitiv rivojlanish tafakkur, xotira, diqqat va nutqning takomillashuvi orqali namoyon bo'ladi. Affektiv rivojlanish esa emotsional barqarorlik va empatiya darajasida aks etadi. Volitiv komponent esa maqsadga yo'naltirilganlik va o'zini boshqarish qobiliyatini shakllantiradi²⁴.

Ijtimoiy pedagogika nuqtai nazardan, shaxs rivojlanishi bu individning ijtimoiy munosabatlari tizimiga kirish, ijtimoiy tajribani o'zlashtirish va ijtimoiy rollarni egallash jarayonidir. Bu jarayon ta'lim muhitida yanada intensiv kechadi, chunki maktab shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasi va qadriyat yo'nalishlarini shakllantirishda muhim institut hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy qarashlarda shaxs rivojlanishi tizimli va ekologik yondashuv asosida talqin etiladi. Ya'ni bola mikro (oil, maktab), mezzo (mahalla, tengdoshlari), makro (ijtimoiy-siyosiy muhit) darajasidagi omillar ta'sirida shakllanadi. Shu bois shaxs rivojlanishi jarayonini faqat individual xususiyatlar bilan izohlash yetari emas. U ijtimoiy konteks bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinishi zarur. Umumiy olganda, shaxs rivojlanishi biologik yetilish, psixologik takomillashuv va ijtimoiy tajribaning o'zlashtirilishi asosida vujudga keladigan kopleks jarayon bo'lib, uning samaradorligi muhitning ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlovchi xususiyatlariga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham shaxs rivojlanishi biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadigan murakkab jarayondir. Bu jarayonda ta'lim muassasalari muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi pedagog yoki ijtimoiy pedagoglar o'quvchining ijtimoiylashuvi, moslashuvi va shaxs sifatida shakllanishida muhim professional subyekt hisoblanadi. Uning kasbiy kopetensiyalari o'quvchi shaxsining moslashuvi va himoyasini ta'minlanishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy kompetensiya-bu mutaxassisning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, kasbiy tajribasi va etik qadriyatlari integratsiyasidan iborat murakkab tizimdir²⁵. Ijtimoiy pedagogning kasbiy kompetensiyalari shaxs rivojlanishining turli komponentlari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Avvalo ijtimoiy-pedagogik kompetensiya o'quvchining ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi va jamiyatga integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

Ijtimoiy kompetensiya esa- bu insonning jamiyatda boshqalar bilan sog'lom muloqot qilishi, ijtimoiy normalarni tushunish, guruhda ishlash va vaziyatga qarab

²⁴Psixologik yoshlar tarbiyasi. L.S.Vygotskiy. Qayta nashir qilingan kitobi. 2020-yil.

²⁵ Ijtimoiy ishning etik prinsplari va qadriyatlari. M.N.Latipova, N.Q.Qayumov. 2015-yil.

o'z xatti-harakatini moslashtira olish qobiliyatidir. Bu murakkab ijtimoiy-pedagogik tushuncha bo'lib, shaxsning ijtimoiy muhitiga moslashuvi, nizolarni hal qilish va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishni ta'minlaydi²⁶. Umumiy olib qaraganda, ijtimoiy ish mutaxassisi uchun kasbiy kompetensiyalari samarali faoliyatni ta'minlovchi tizimli bilim, ko'nikma va malakalar mazmunini ifodalaydi. Ilmiy manbalarga ko'ra, asosiy kompetensiyalar quydagi toifalarda iborat sanaladi²⁷.

1.Huquqiy kompetensiya.

-Bola va o'quvchilarning huquqlari, ularning himoyasi bo'yicha normativ-huquqiy bazani bilish.

-Zo'ravonlik, kamsitish va diskriminatsiya holatlarini aniqlash va oldini olish.

-Ta'lim va ijtimoiy muassasalarda xavfsiz muhitni yaratish bo'yicha choralarni ishlab chiqish.

2.Ijtimoiy-pedagogik kompetensiya.

-O'quvchining ijtimoiylashuv jarayonini qo'llab-quvvatlash.

-Moslashuv va ijtimoiy muammolarni aniqlash, ularga mos profilaktik va reabilitatsion choralarni ishlab chiqish.

-Oila, maktab va jamiyat o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish.

3.Psixologik kompetensiya.

-O'quvchining emotsional va psixologik holatini tushunish.

-Stress, xavotir va moslashuv muammolarini kamaytirishga ko'maklashish.

-Individual yondashuv orqali shaxsning ruhiy barqarorligini mustahkamlash.

4.Diagnostik kompetensiya.

-Ijtimoiy xavf guruhidagi bolalarni aniqlash va ularning ehtiyojlarini tahlil qilish.

-Muammoni tizimli o'rganish va individual rivojlanish rejasini ishlab chiqish.

-Strategik aralashuv jarayonlarini ishlab chiqish, tanlash va amalga oshirish.

5.Kommunikativ kompetensiya.

-O'quvchi, ota-ona va pedagoglar bilan samarali muloqot o'rnatish.

-Mutaxassislararo hamkorlik (psixolog, pedagog, shifokor) orqali ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlash.

-Ishonchli va ochiq muloqot orqali o'quvchining muammolarini aniqlash va ularni hal qilish.

6.Etik kompetensiya.

-Maxfiylikni saqlash va professional axloqiy me'yorlarga rioya qilish.

-Diskriminatsiyasiz va adolatli yondashuvni ta'minlash.

²⁶ Ijtimoiy ishning etik prinsiplari va qadiriylatlari. M.N.Latipova, N.Q.Qayumov. 2015-yil.

²⁷ Ijtimoiy ish etikasi. F.X.Nabiyev. 2015-yil.

-Ijtimoiy va madaniy kontekstni hisobga olgan holda qarorlar qabul qilishni qamrab oladi.

Ijtimoiy ish mutaxassisining kasbiy kompetensiyalari amaliy jarayonlarda samaradorlikni ta'minlab beruvchi omillardan bir sanaladi.

Umumiy ma'noda yuzlanadigan bo'lsak, kompetensiyaning asosiy xususiyatlari bu muloqot qobiliyati, moslashuvchanlik, tushunish, nizolarni hal qilish bilan izohlanadi²⁸. Har bir sohada mutaxassis ijobiy natijalarga erishish uchun kompetensiyaga amal qilishi lozim bo'ladi.

Xulosa

Ijtimoiy ish mutaxassisining kasbiy kompetensiyalari o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi kopleks va integrativ omil sifatida nomoyon bo'ladi. Zamonaviy ijtimoiy-pedagogik yondashuvlar nazaridan, kompetensiya faqat bilim va ko'nikmalar yeg'indisi emas, balki qadriyatlar, etik me'yorlar refleksiv tafakkur va amaliy faoliyat birligidan iborat tizimli tuzilmadir. Mazkur tizim o'quvchining ijtimoiy moslashuvi, psixologik barqarorligi hamda huquqiy himoyasini ta'minlash jarayonida muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Kasbiy kompetensiyalarning rivojlanganlik darajasi ijtimoiy ishning natijadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kommunikativ, diagnostik, prognostik (baholash) va himoyaviy kompetensiyalar o'zaro integratsiyalashgan holda qo'llanilganda, o'quvchi shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni samarali kechadi. Bunda mutaxassisning refleksiv(o'z-o'zini tahlil qilish) qobiliyati, kasbiy etikaga sodiqligi va individual yondashuvni amalga oshira olishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, kompetensiyalarning uzluksiz takomillashtirilishi ijtimoiy xavf omillarini erta aniqlash, profilaktik choralarni ishlab chiqish hamda o'quvchini qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhitni shakllantirish imkonini beradi. Bunday tizimli ravishdagi yondashuvlar bilan, barqaror amaliy natijalarga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy ish mutaxassisining kasbiy kompetensiyalari o'quvchi shaxsining rivojlanishi va himoyasini ta'minlovchi nazariy-amaliy mexanizim sifatida ijtimoiy pedagogik faoliyatning metodologik negizini tashkil etadi. Ularning ilmiy asosda shakllantirilishi va amaliyotga joriy etilishi ta'lim muassasalarida ijtimoiy ish samaradorligini oshirish, shuningdek barkamol va ijtimoiy mas'uliyatli shaxsni yetishtirishda muhim shart hisoblanadi. Zamonaviy ijtimoiy jarayonlarning murakkablashuvi, o'quvchilar duch kelayotgan psixologik va ijtimoiy muammolarning ko'payishi mutaxassisdan yuqori darajadagi professional tayyorgarlikni talab etadi.

²⁸ Ijtimoiy ishning etik prinsiplari va qadriyatlar. M.N.Latipova, N.Q.Qayumov. 2015-yil

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. A.V.Petrovsky. "Bolalar va o'smirlar psixologik rivojlanishi". Toshkent. 2019-yil.
2. A.S.Makarenko. "O'smirlar tarbiyasi: amaliy qo'llanma". Toshkent. 2020-yil.
3. L.S.Vygotskiy. "Psixologiyada yoshlar tarbiyasi" Qayta nashir. 2020-yil.
4. M.N.Latipova, N.Q.Qayumov. "Ijtimoiy ishning etik prinsiplari va qadiriylar".2015-yil.
5. F.X.Nabiyev. "Ijtimoiy ish etikasi". 2015-yil.
6. M.M.Abdurahmonova. "Maktablarda ijtimoiy ish". Farg'ona. 2022-yil.
7. S.Mannopov. "Ijtimoiy ish xodimining etikasi va qadiriylari". O'quv-uslubiy ko'rsatma. FarDU. 2017-yil.
8. M.Q.Rahmonov. "Ijtimoiy pedagogika". Toshkent. 2022-yil.